

KICHIK TURDAGI TRAKTORLARGA UNIVERSAL TASHISH YUKLAGICH MOSLAMALARINI ISHLAB CHIQISH

Abdujabbarov Oybek Abdullajanovich

Andijon davlat texnika instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu tezisda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va boshqa materiallarni tashish, ortishda qo‘llaniladi. Mahsulotlarni, materiallarni tashish, ortishda qo‘l mehnatini kamaytirish va vaqt ni tejashni taqozo qiladi.

Kalit so‘zlar: traktor, yer maydonlari, gektar, uzellar, dehqon xo‘jaliklari, gektar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.07.2022 yildagi PQ-335-son Chirchiq shahrida qishloq xo‘jaligi mashinasozligi klasterini tashkil etishni yanada jadallashtirish choratadbirlari to‘g‘risida qaroriga asosan Toshkent traktor zavodi» MChJ tomonidan kichik hajmga ega traktorlardan foydalanishni soddalashtirish inson qo‘l mehnatini yengillashtirish bo‘yicha loyihani ishlab chiqish maqsad qilingan. Bunda Lovol 352, Lovol 404, Lovol 504 traktorlarida universal frontal tashish-yuklagichning tayyorlangan ishchi chizmalari asosida detall va uzellarini konstruktiv chizmalarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish hamda sotish reja qilingan. Yuqoridaqilardan kelib chiqqan holda qurilish materiallari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini va boshqa materiallarni tashish, ortishda qo‘llaniladi. Mahsulotlarni, materiallarni tashish, ortishda qo‘l mehnatini kamaytirish va vaqt ni tejashni taqozo qiladi.

Mamlakatimizda 5 milliondan ziyod xonadonda 508 ming gektar tomorqa, avval tashkil etilgan dehqon xo‘jaliklarida 17 ming gektar va so‘nggi yillarda aholiga 260 ming gektar yer maydonlari tarqatilgan. Bu yerlar qo‘srimcha “iqtisodiy aktiv”, odamlarni ishli qilib, daromadini oshirish va oziqovqat xavfsizligini ta’minlashda eng katta zahira sifatida qaralmoqda. Prezident matbuot xizmati 97 xabariga ko‘ra, o‘tgan yetti yilda tomorqa egalari va dehqon xo‘jaliklarini qo‘llab-quvvatlash uchun jami 2,3 trln so‘m imtiyozli kredit va 265 mldr so‘mlik subsidiya berilgan. Odamlarning ko‘nikmasidan kelib chiqib, 5145 ta mahallalarda meva-sabzavot yetishtirish, ko‘katchilik, limonchilik kabi yo‘nalishlarga ixtisoslashtirilgan. Odamlar yerga ishlashni, zamnaviy agrotexnologiyalarni qo‘llashni o‘rganishi natijasida ilgari tomorqada gektaridan o‘rtacha 18 tonna mahsulot olingan bo‘lsa, hozirda bu 2 karra oshib, 38 tonnaga yetdi. Mahallalarda qo‘srimcha 470 ming tonna meva-sabzavotni saqlash, saralash va qayta ishslash quvvatlari yaratildi. Respublikamizning Asaka, Jondor, Shahrисabz, Uychi, Qiziltepa, Yangiyo‘l, Toyloq, Angor, Quva, Oltiariq kabi o‘nlab tumanlarda odamlar tomorqadan 2-3 marta hosil olib, bir sotixdan o‘rtacha 15-20 mln so‘m daromad topyapti [1, 2].

Respublikamizning hozirgi kunda kichik hajmdagi qurulishlar va obodonlashtirish ishlari hisobga olgan holda statistika agentligi ma'lumot berishicha, 2024-yilda O'zbekistonidagi barcha toifadagi xo'jaliklari tomonidan jami 11 994,8 ming tonna sabzavot yetishtirilgan [3].

Amalga oshirish imkoniyati. Kichik traktorlarga mo'ljallangan universal tashish-yuklagich moslamasining mavjud konstruksiyalarini tahlil qilish Respublika va xorijda qo'llanilayotgan kichik traktorlarga mo'ljallangan universal tashish-yuklagich moslamalarining konstruksiyalari tahlil qilinadi, sxema va chizmalari, 3D modellari o'rganiladi. Mavzuga oid moslamalarning mavjud konstruksiyalari tahlil qilinadi. Lovol 352, Lovol 404 va Lovol 504 kabi kichik traktorlar parametrlari o'rganiladi. Ishlab chiqarishdagi kichik traktorlar parametrlari o'rganiladi. Tashish-yuklagich moslamasi o'matildigan tashish-yuklash mahsulotlarining fizik-mexanik xususiyatlari o'rganiladi, tahlil qilinadi, toifalarga ajratiladi, mahsulotlarining fizik-mexanik xususiyatlari o'rganiladi, ularning holati, turi, darajasi o'rganiladi, mahsulotlarining tashish-yuklagich tanlanadi, ularning dastlabki parametrlari asoslanadi.

Ekologik xavfsizlik va barqarorlik. Ekologik jihatdan olib qaraganda yoqilg'i sarfi katta transportlar atmosferaga ko'proq chiqindi chiqaradi, bu esa hozirgi kunning eng katta muammolaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa qurilish sohasida shah arning markazi ko'chalarida kichik turdag'i ta'mirlash ishlarida, usti yopiq bo'lgan joylarda kichik hajmdagi ochiq yuklarni ortish, tashish, tushurish vazifalarini kam yoqilg'i sarflab hamda yopiq shifti past joylarda ham ish olib bora olish qobiliyati bilan ushbu g'oyada keltirilgan traktorlar shug'ullana oladi.

Ushbu turdag'i traktorlardagi universal frontal tashish-yuklagichning qo'llanishi respublikamiz qishloq xo'jaligida va traktorsozligida yaxshigina o'zgarish keltirib chiqaradi. Kichik gabaritga ega universal frontal tashish-yuklagichga ega traktorlar nafaqat shahar sharoitida balkim qishloqlarda kichik o'lchamdag'i ishlarini bajarish qish faslida yo'llarni qordan tozalash vazifasini ham bajaradi. Ushbu turdag'i texnikaning yurtimizda ishlab chiqarilishi iqtisodiy tomonidan nisbatan arzon va sodda tuzilishga ega texnikalarni rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Казеннова Е.П. Общая технология стекла и стеклянных изделий. М.: Стройиздат, 1983, 114 С.
2. Гулян Ю.А. Декоративная обработка стекла и стеклоизделий. М.: Выш. шк., 1989, 225 с.
3. Калафатова Л. П. Прогнозирование качества поверхностного слоя при обработке изделий из технических ситаллов // Справочник. Инженерный журнал. Приложение. 2002. № 9 С.5-8.

4. <https://www.gazeta.uz/>
5. www.spot.uz
6. [https://uz24.uz/.](https://uz24.uz/)
7. Сайдов Ш.В. Методолог